

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Sh.Shermuhammadov</b>	
Ilmsizlarni tarix haqiqatlari fosh etadi.....	8
<hr/>	
PEDAGOGIKA	
<b>B.Sh.Shermuhammadov, O.R.Raxmatov</b>	
Mediasavodxonlik vositasida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining informatsion madaniyatini rivojlantirish mazmuni.....	10
<b>Ким Владимир</b>	
Эффективность внедрения акцентированной методики по развитию физического статуса юных баскетболистов .....	15
<b>A.H.Amonov</b>	
Научное обоснование актуальности проблемы развития скорости перемещения и точности ударов в настольном теннисе с самого раннего возраста. ....	20
<b>N.O.Saidova, D.M.Axmadjonova</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhlarida bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlantirishning hozirgi holati.....	25
<b>O.Q.Xasanova</b>	
Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarida xatolarni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishning ahamiyati .....	28
<b>M.E.Abdullayev</b>	
O'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishda etnopedagogik qadriyatlarning tarbiyaviy imkoniyatlari.....	34
<b>B.Sh.Turg'unboyev</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarning media kompetentsiyasini shakllantirishga nazariy va uslubiy yondashuvlar .....	37
<b>X.A.Kadirova</b>	
Tibbiyot oliygochlarda tibbiy biologiya va umumiy genetika fanlarini o'qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lim metodlari.....	43
<b>S.T.Xakimov, S.Q.Xudoyqulov</b>	
Maktab o'quvchilarining kun davomidagi harakat faolligining me'yori .....	49
<b>D.K.Karimov</b>	
Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarida egiluvchanlikni rivojlantirish usullari samaraliligini o'rganish.....	53
<b>K.F.Nazarova</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini loyihalashning pedagogik-psixologiya xususiyatlari.....	57
<b>J.Dj.Sultanov</b>	
Harbiy-siyosiy sohada axborot tahdidlarining oldini olish masalalari.....	61
<b>X.X.Xasanbayev</b>	
Mudofaa tizimida harbiy pedagog kadrlarni tayyorlash va ularni malakasini oshirish mexanizmi.....	64
<b>O'R.Maxmudov</b>	
O'zbekiston harbiy ta'lim muassasalari harbiy pedagoglarning professional harbiy pedagog bo'lib shakllanishidagi muammolar va ularning yechimi.....	68
<b>I.Y.Masharipov</b>	
Bo'lajak harbiy pedagoglarni harbiy-kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik omili .....	71
<b>F.O.Qo'ysinova</b>	
Mafkuraviy va ma'naviy tahdidlar bilan bog'liq jarayonlarda radikalizm muammosi .....	75
<b>R.X.Ibragimov</b>	
Kasb-hunar maktablarida fizika fanini o'rganishda o'quvchilar o'rtasida eksperimental ko'nikmalarni shakllantirish .....	78
<b>A.Tuychiyev</b>	
Ta'lim tizimida xorijiy tajribadan foydalanish va ta'lim texnologiyalarining o'ziga xos jihatlari.....	82

## МАКТАВ О'QUVCHILARINING KUN DAVOMIDAGI HARAKAT FAOLLIGINING МЕ'YORI

### НОРМА ДВИГАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ ШКОЛЬНИКОВ В ТЕЧЕНИЕ ДНЯ

### THE NORM OF PHYSICAL ACTIVITY OF SCHOOLCHILDREN DURING THE DAY

**Xakimov Saydullo Tulanboyevich<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Jismoniy madaniyat nazariysi va uslubiyoti kafedrasasi o'qituvchisi

**Xudoqulov Shaxboz Qobuljon o'g'li<sup>2</sup>**

<sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti, Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabasi

#### *Annotatsiya*

*Maqolada maktab o'quvchilarining kun davomidagi harakat faolligining me'yoriga amal qilish orgali Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish yoritib berilgan. Shuningdek, maktab o'quvchilarining harakatlanish faolligi sur'atlari, organizmni katta jismoniy yuklama ko'rмаганлиги оқибатида yurak muskul tolalarining bir qismimi yog' va biriktiruvchi to'qimalar qoplab olishi mushaklarining qisqarishi qobiliyatini susayishi, yurak-qon tomiri tizimidagi asosiy qon tomirlari devorlarini egiluvchanligini kamayishi, oqibati esa arterial bosimni ko'tarilishiga sababları keltirilgan.*

#### *Аннотация*

*В статье освещается широкое внедрение здорового образа жизни и дальнейшее развитие массового спорта путем соблюдения норм активности школьников в течение дня. Также из-за высокой двигательной активности школьников, отсутствия физической нагрузки на организм жировая и соединительная ткань покрывают часть волокон сердечной мышцы, снижая способность мышц сокращаться, снижая эластичность стенок сердечной мышцы. магистральные сосуды сердечно-сосудистой системы, последствия которых являются причинами повышения артериального давления.*

#### *Abstract*

*The article highlights the widespread implementation of a healthy lifestyle and the further development of mass sports by following the norms of schoolchildren's activity during the day. Also, due to the rate of movement activity of schoolchildren, the lack of physical load on the body, fat and connective tissue cover part of the heart muscle fibers, reducing the ability of the muscles to contract, reducing the elasticity of the walls of the main blood vessels in the cardiovascular system. , the consequences of which are the reasons for the increase in arterial pressure.*

**Kalit so'zlar:** Harakat aktivligi, harakat aktivligi, Gipodinamiya, Gipokineziya, ertalabki gigiyenik gimnastika (EGG), chastotasi, yurak qisqarish soni (YUQS), yog' bosish, vazn ortishi.

**Ключевые слова:** Двигательная активность, двигательная активность, гиподинамия, гипокинезия, утренняя гигиеническая гимнастика (УГГ), частота сердечных сокращений, жировая супрессия, прибавка массы тела.

**Key words:** Movement activity, movement activity, hypodynamia, hypokinesia, morning hygienic gymnastics (EGG), frequency, heart rate (HIGH), fat suppression, weight gain.

#### **KIRISH**

Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6099-son Farmonida ommaviy sport bilan doimiy shug'ullanish, to'g'ri ovqatlanish tamoyillariga riosa qilish, xususan tarkibida tuz, qand va yog' miqdori ko'p bo'lgan hamda xamirli taom va shirinliklarni, non mahsulotlarini me'yordan ortiq iste'mol qilmaslikni, bir so'z bilan aytganda, sog'lom turmush tarzini kundalik hayotimizga aylantirishimiz zarur ekanligini bugungi davrning o'zi taqozo etmoqda.

Jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanish hamda sog'lom turmush tarzi bo'yicha hayotiy ko'nikmalarni shakkantirish orgali har bir fuqaroda kasallikka qarshi kuchli immun tizimi paydo bo'lishini ta'minlash, zararli odatlardan voz kechish, to'g'ri ovqatlanish tamoyillariga amal qilish, tiklash va rehabilitatsiya ishlari hamda ommaviy jismoniy faoliyat tadbirlarini tizimli va samarali tashkil qilish, bu borada tegishli infratuzilma va boshqa zarur shart-sharoitlarni yaratish lozimligi alohida takidlangan.

#### **ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR**

So'nggi yillarda ta'llim tizimida o'quvchi-yoshlarni jismoniy tayyorgarlik va jismoniy rivojlanish masalalarini hamda aholini jismoniy tarbiyasi bo'yicha bir qator muammolarni O'zbekiston Respublikasining yetakchi mutaxassislari, xorijiy ko'zga ko'ringan tajribali pedagoglar, ko'pchilik olimlar

tomonidan (V.K.Balsevich, O.V.Verxoshanskiy, A.A.Gujalovskiy, L.P.Matveyev, F.A.Kerimov, Sh.X.Xankeldiyev, L.R.Ayrapetyans, R.Salamov, T.S.Usmonxo'jayev, K.Maxkamjonov, F.Xodjayev, K.D.Yarashev va boshqalar) nazariy jihatdan o'rgangan.

Ba'zi tadqiqotchilar (D.D.Sharipova, G.V.Goshupkin, N.B.Bernshteyn, R.S.Salamov, A.T.Sodikov, B.G.Boyboboyev, V.V.Semenov, T.S.Usmonxo'jayev, G.Y.Fokin Sh.X.Xankeldiyev, V.P.Filin, V.I.Platnov va boshqalar)ning ilmiy izlanishlarida turli xil sport mashqlari umumiyligi texnika asoslariiga o'rgatishning maqsadga muvofiqligi va uning imkoniyatlari masalasi tadqiq qilingan hamda ular jismoniy tarbiya va sportni turli qirralarini ochishga harakat qilganlar.

O'quvchilar harakat aktivligi darajasini o'rganish maqsadida Farg'ona vodiysi umumiyligi ta'lif mablag'ida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlarni ko'rsatishicha, o'quvchilar sutkaning 24 soatidan 9-10 soatini uyquga, 4-7 soatini mablag' partasida o'tirish (o'qish uchun), 2-3 soatini uyda dars tayyorlash, 2-2,5 soatini uydag'i ishlarga sarflar ekanlar. Qolgan taxminan 4-5 soat vaqtini televizor, kompyuter, bekorchilikga sarflab vaqtini o'zlarining xohishlariga ko'ra o'tkazishlari ma'lum bo'ldi. Bunday "bebaho boylikni" – ya'ni, vaqtini o'zi xohlagan ish bilan shug'ullanishga sarflash va undan unumli foydalanish "harakat faolligi", "harakat aktivligi", o'zining organizmi uchun "optimal harakatlanishning hajmi, miqdori"ni tanlay olish degan sog'lim turmush tarzi jismoniy madaniyati bilimlari va uning darajasi bilan bog'liq va ularni foydasini tushunishga borib taqaladi.

Afsuski, asrimizning dominant xususiyatlaridan eng ko'zga ko'rindigani o'quvchi-yoschlarning kundalik turmush tarzida harakatlanishni me'yoriga e'tiborsizligi yoki ayrim holatlarda harakat faolligini chegaralanib qolishi, o'ynagani, shug'ullanish uchun sharoitni yaxshi emasligidadir. Ular 100 yil avval mehnat jarayonida sarflanadigan energiyani (akademik I.A.Berg) 96% mushaklar quvvati, kuchi hisobiga bajarilganligini bilmaydilar. Hozirgi kunga kelib esa 99% insonning mehnat faoliyati mexanizmlar quvvatini hisobiga bajarilmoqda. Gipodinamiya, gipokineziya, hajmi chegaralangan jismoniy yuklamalar, organizmning funksional holatini intensiv holda o'chishiga sabab bo'immoqda, agar, unga ruhiy passivlik ham qo'shilsa bormi, bu jarayon yanada tezlashayotganligini ilmiy-tadqiqotlar isbotlab bo'ldi.

"Gipodinamiya"-kam harakatlanish, "Gipokineziya"-sust harakatlanish kasallik hisoblanishi hozirgi kunda hammaga ma'lum va ular XX asrdan biz uchun meros bo'lib qoldi. Ularni salbiy tomonlari hozirgi kunga kelib ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Tadqiqotlarning natijalari harakati cheklangan yoki kam harakatlanishni yoqtiradiganlarning mushaklari faol harakatlanib, yashovchilarning mushaklariga qaraganda ancha tez quriy boshlashini, chidamlilagini esa keskin pasayishini, o'pka va yurak faoliyati ishida nuqsonlarni yuzaga kelayotganligi, organizmining kuch-quvvati, mushaklari tarangligi (tonusi)ning pasayishi, lanjlik, lohaslik va turli xildagi kasalliklarning alomatlari paydo bo'lishi, yuragining sanchishi va boshqa hurujlarni o'ta tez boshsanayotganligini ko'rsatmoqda. Halqning "ko'p yurgan uzoq umr ko'radi" degan maqoli bejiz aytilmagan.

Harakatlanish faolligi sustlar 40 yoshga yaqinlashmay turib organizmi katta jismoniy yuklama ko'rmanligi oqibatida yurak muskul tolalarining bir qismini yog' va biriktiruvchi to'qimalar qoplab olishi mushaklarining qisqarishi qobiliyatini susayishi, yurak-qon tomiri tizimidagi asosiy qon tomirlari devorlarini egiluvchanligini kamayishi, oqibati esa arterial bosimni ko'tarilishiga sabab bo'immoqda.

Tomirlar tizimi xizmatidagi salbiy o'zgarishlar to'qimalarni qon (tarkibida ozuqa modda va kislород) bilan ta'minlanishini buzilishi, organizmning umumiyligi tonusining pasayishi, yog' bosish (vazn ortishi) va boshqa qator ko'ngilsizliklarni yuzaga keltirmoqda. Shuning uchu ham har bir individ hozirgi kunda o'zining kamida minimal harakatlanish me'yoriga ega bo'lishi va uni yo'liga qo'yish jismoniy madaniyat mashg'ulotlari zimmasiga yuklatilmoqda.

Amerikalik olim D.Volfning (1986) tadqiqotlari kam harakatlanish bilan hayot kechiruvchilar, ayniqsa, aqliy mehnat kasbi sohiblari jismoniy mehnat qiluvchilar yoki sog'lim turmush tarzi jismoniy madaniyatiga egalariiga nisbatan 10 marta ko'proq kasallikka yo'liqayotganliklarini aniqlagan. Shuningdek, "yurak faoliyatining zahirasi" – uzoq sog'lim yashash chorasi mushaklarni mashqlantirishdadir. Rivojlangan mushak qonni nasos tarzida so'rib olishdek funksiyasiga ega bo'lib, yurakni organlarga qon haydash va uni so'rib olish faoliyatini osonlashtiradi.

Yo'naltirilgan tizimli mashg'ulotlar organizmning ish qobiliyatini qayta tez tiklanishiga yordam beradi, yurak mushaklarining oziqlanishini yaxshilaydi. Qayd qilinganlarning asosiy vositasi sog'limlashtirish jismoniy madaniyati mashg'ulotlari bo'lishi hozirgi kunda ham ilmiy-nazariy va amalda isbotlangan.

## PEDAGOGIKA

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Adabiyotlar, ilmiy-tadqiqotlarning natijalarini umumlashtirish asosida maktab yoshidagilar uchun sutka davomida o'quvchilarni sinfdan tashqari, maktabdan tashqari vaqtarda faol dam olish uchun sarflaydigan taxminiy vaqtining me'yорини tavsiya qildik (1-jadval).

1-jadval

**Turli sinflarning o'quvchilari uchun tavsiya qilinadigan  
“faol dam olish”ning taxminiy vaqt me'yori  
(soat hisobida)**

Faol dam olishning shakllari	I-II	III-IV	V-VI	VII-VIII	IX
Ochiq havoda dam olish (harakatli o'yinlar va turli xildagi ko'ngil ochish mashg'ulotlari)	3.30	4.00	3.30	3.00	2.30
Darsdan tashqari mashg'ulotlar (mehnatni qo'shgan holda )	2.00	2.30	2.00	2.00	2.30
Jami	5.30	6.30	5.30	5.00	5.00

Halq ta'lif vazirligi va ta'lif muassasalarining ish tajribalari, mamlakatimizda olib borilgan ilmiy-tadqiqotlarning natijalariga asoslanib maktab o'quvchilarining ochiq havoda bo'lishga quyidagicha vaqt sarflashi tavsiya qilingan:

- a) 7-10 yoshdagagi o'quvchilarga kamida 3 soat;
- b) 11-14 yoshdagagi o'smirlarga kamida 2.5 soat;
- v) yoshlar va qizlarga kamida 2 soat vaqt meyyor qilib belgilangan.

O'quvchilarning kunlik harakat faolligi ularni ertalabki gigiyenik gimnastika (EGG) mashg'ulotini bajarishi bilan boshlanadi. Ularning sutkalik kun tartibi tarkibidagi EGG mashqlari va ularni bajarishda yuzaga keladigan jismoniy yuklamalarni tanlashga oid bilimlari bizni qiziqtiradi. Uni o'rganish maqsadida 700 dan ortiq maktab o'quvchilari bilan o'tkazgan sosiologik tadqiqotlarimiz o'quvchilarni jismoniy yuklamalarni tanlash, me'yорини belgilashga oid nazariy tayyoragarliklari juda sayoz ekanligini ko'rsatdi.

Quyida maktab yoshidagilar uchun G.P.Bogdanov boshliq rus olimlari guruhi tavsiya qilgan gigiyenik gimnastika mashqlarini bajarish mashg'ulotlarining davom etishini taxminiy vaqt, tanlangan mashqlar soni, ularni takrorlashlarning me'yoriga oid maktab yoshidagilar uchun sinamalar, yuklamalar me'yорини taxminiy jadvalini berdik (2-jadval).

Jadvalda qayd qilingan mashqlarni takroriy bajarish ustunining “a” sida xududimizmiz o'quvchilarini bajarish dozasi, “b”sida esa Rossiyaning markaziy rayonlari o'quvchilari uchun tavsiya qilingan “takrorlash”lar soni berilgan.

2-jadval

**Ertalabki gigiyenik gimnastika mashqlarini shug'ullanuvchining yoshiga qarab  
me'yorlash (M.Ya.Studenikin)**

Yoshi	Mashg'ulotning davomiyligi, minut	Soni	
		Mashqlar	Har bir mashqni takrorlanishi
7-9	“a” 8-10 “b”	“a” 5-6 “b”	“a” 5-10 “b”
10-11	10-12	6-8	8-15
12-13	12-15	6-8	10-20
14-15	15-17	8-10	15-25
16-17	20 min.gacha	10-12	20-30

Ertalabki gigiyenik gimnastika organizmni asta-sekinlik bilan kunlik faoliyatiga tortadigan mashqlar bo'lishi lozim. ularni tanlab bajarish orqali o'quvchini o'quv kuniga tez moslashishiga qulaylik tug'ilishi lozim. Tanlangan mashqlar to'plami bajarishda qiyinchilik tug'dirmay katta jismoniy yuklamani yuzaga keltirmaydigan komplekslardan iborat bo'lishi, ularni chiniqtiruvchi ta'sir beradigan faktorlar – havo, suv, quyosh nuridan foydalanish bilan bajarishni foydasi beqiyosdir. Mashqlanish paytida yuklama me'yori har bir mashqdan so'ng yurak qisqarishi soni kamida 2-3 martaga ortsagina ertalabki gigenik gimnastikadan organizmga foyda kutish mumkin. Quyida biz kichik maktab yoshidagilar uchun EGG mashqlar kompleksini tavsiya qildik (1-rasm).

Sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati amaliyoti yurak qisqarish soni (YUQS) ni faqat mashg'ulot boshlanishida emas har bir mashqdan so'ng hisoblash bilan tashkillash va o'tkazishni taqozo etadi. Shundagina mashg'ulotdagi yuklamani me'yori haqida fikr aytish mumkin. Mashg'ulot davomida YUQSni hisoblashdan erinmaslikni foydasi katta. Unga e'tiborlilik mashqlanishni besamara degan tushunchani paydo bo'lishini oldini oladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quvchilarni kunlik, haftalik, oylik harakat faolligini me'yorini aniqlash YUQS sinii hisoblash orqali aniqlanadi.

Jismoniy yuklamalar YUQS si orqali – 10 sek.dagi zarbani sanab 6 ga ko'paytiladi. Masalan, 10 sek.da 15 marta yuragi qisqarayotgan bo'lsa,  $15 \times 6 =$  minutiga = 90 marta deb hisoblanadi. Har bir urinish mashqlaridan so'ng YUQS kamida 2 martaga ortsiz mashqning dozasini to'g'ri tanlagansiz.

Maksimal puls o'quvchilarning EGG mashg'ulotida YUQS zarbi 150-160 tadan ortmasligi, maktabgacha yoshdagilarda 5-10 tadan ortiq, kattalarda esa 10-20 martaga kam urishi lozim. Biz o'tkazgan va boshqa tadtiqotlarning natijalariga asoslanib gigiyenik gimnastika davomida YUQS minutiga taxminan 140 ( $\pm 10$ ) atrofida bo'lsa, mashg'ulotdan lozim bo'lgan effektni kutish mumkinligi isbotlangan. Mashqlar kompleksini bajarish to'xtatilgandan so'ng (bir minut o'tib) YUQS zarbi 100-120 tacha pasayishi, jismoniy tayyorgarligingizni holatiga ko'ra taxminan 8-15 minutdan so'ng esa YUQS si o'zining normal holatiga qaytishi norma hisoblanadi.

Har kunlik, tizimli ertalabki gigiyenik gimnastika mashg'ulotlari yilning har qanday fasilda doimiy bajarilishi odatga aylangan harakat faolligi minimumi bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

### XULOSA

Hozirgi kunga kelib ertalabki gigiyenik gimnastika mashg'ulotlari mahalla, guzarlar, muktab, bolalar sport makteblari sport bazalari, sport inshootlari, suv havzalari, anhorlar, soy bo'yli, havosi toza park zonalarda maxsus qurilgan "sog'lomlashtirish yo'lkalari" da "sog'lomlashtirish trenirovkalari" tarzida ommaviy tashkillanmoqda. Biz faqat EGG mashg'ulotidagi me'yorga to'xtaldik xolos. Xulosa qilib shuni aytish lozimki, jismoniy yuklama me'yoriga moslashuv sodir bo'lishi, mashqlanishni odatga aylanib qolishi muhim. Agar ma'lum sabablarga ko'ra bajarilishi odatga aylanib qolgan harakatlar to'xtatilsa yoki shu kun uchun jismoniy yuklama me'yori odatlangan hajmdagidan past yoki ortiq bo'lsa, organizmimiz bu holatga o'zining reaksiyasi bilan javob beradi. Shuning uchun o'quvchilik yillardanzanoq o'z organizmimizni "eshitishni" o'rganishimiz, o'zimizning kayfiyatimizni tushib ketishi yoki uning aksi ko'tarinkilik holatinining sabablariga loqayd bo'lmashlik sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati sohibining nazariy tayyorgarligi sanaladi.

Me'yor, ayniqsa, jismoniy imkoniyatlarimiz haqidagi me'yor tushunchasining mazmuni keng. Jismoniy imkoniyatlarimiz me'yori yashab turgan kuni, uning har bir soatidagisi ham turlicha. Shunga ko'ra jismoniy zo'riqishlarni qilishdan avval aqliy tahlil, fikr yuritish zaruriyat bo'lishi lozim.

O'sish davrimizda sekin-asta oshib borayotgan kuch-quvvat, chidamlilik, chaqqonlik, tezkorlik va tananing pishiqligini ortishi kundan kunga yangi bilimlar va amaliy harakat malakalarining zahirasini boyishi bilan borishi lozim.

Har qanday jismoniy akt, faoliyat o'z me'yorida bo'lishi, yuqori natija ko'rsataman yoki hammani "qoyil qoldiraman", degan fikrga qul bo'lish me'yorni unutish bilan yakun topadi. Organizmni "moslashuvi" ni shoshririb bo'lmaydi. Tengdoshingiz oson bajarayotgan jismoniy yuklama siz uchun me'yordan ortiq bo'lishi yoki uning aksi bo'lishi mumkin. Bajargan harakatlaringiz, ular o'yinlar yoki jismoniy mashqlar tarzida bo'ladimi, sizda ruhiy ko'tarinkilik yoki jismingizni yavratsagina – xushhollik keltirsagina me'yordi harakatlar bajardim, deb xulosa qiling. Me'yordan ortiq harakatlanishdan so'ng ma'lum vaqt o'tib organlaringiz va tuzilmalaringiz "faryod" ko'tarsa, og'rib sizdan "o'ch olsa" yuklamalar me'yorini tanlashda xato qilgan bo'lasiz.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 30-oktyabr, PF-6099-son Farmoni.
2. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariysi va usuliyati.-T.O'zDJTI nash. 2007 y.- 231s.
3. Xankeldiyev Sh., Abdullayev A. va boshqalar "Sog'lom turmush tarzining jismoniy madaniyati" O'quv-qo'llanmasi "Farg'on'a" nashriyoti, 2010 y.
4. Salomov R.S., Aripov Yu.Yu. Muktab yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi metodikasi asoslari.-T. "Moliya". 2011.